

XITOIY ELCHISI CHJAN CHYANNING MARKAZIY OSIYO TARIXIGA OID MA'LUMOTLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-526-533>

Xubbaliyeva Maxpurat

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan mashhur xitoy elchisi Chjan Chyaning Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston tarixiga oid ma'lumotlari tahlil qilinadi. Chjan Chyan tomonidan amalga oshirilgan ekspeditsiyalar orqali Xitoy ilk bor "G'arbiy o'lka" deb nomlanuvchi yangi geografik hudud bilan tanishdi. Mazkur sayohat natijasida Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo bilan diplomatik, savdo va madaniy aloqalar yo'lga qo'yildi. Elchi tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida Xitoy imperiyasi G'arbgga kengayish siyosatini olib bordi va Buyuk Ipak yo'lining shakllanishiga zamin yaratildi. Shuningdek, maqolada Chjan Chyaning Davan (Farg'ona), Baqtriya, Kanguy kabi davlatlar haqida bergan tasvirlari, ularning iqtisodiy, harbiy va madaniy hayoti haqidagi ma'lumotlar, hamda ularning Xitoy bilan bo'lgan ilk aloqalari yoritilgan. Chjan Chyaning tarixiy xizmatlari xitoy manbalarida, ayniqsa "Shi ji" (Tarixiy xotiralar) va "Han shu" (Xan sulolasi tarixi) asarlarida muhim o'rin egallaydi. Mazkur maqola Xitoyning qadimgi tashqi siyosati va diplomatiyasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Chjan Chyan, G'arbiy o'lka, Davan, Baqtriya, Markaziy Osiyo, Xan sulolasi, Shi ji, Buyuk Ipak yo'li.

Abstract: This article analyzes the historical information provided by the renowned Chinese envoy Zhang Qian, who lived in the second half of the 2nd century BCE, regarding Central Asia, particularly Turkestan. Through the expeditions carried out by Zhang Qian, China was introduced for the first time to a new geographical concept known as the "Western Regions." As a result of this journey, diplomatic, trade, and cultural relations were established between Eastern Turkestan and Central Asia. The information gathered by the envoy laid the foundation for the Han Empire's westward expansion policy and contributed to the formation of the Silk Road. Additionally, the article highlights Zhang Qian's descriptions of states such as Dawan (Ferghana), Bactria, and Kangju, providing insights into their economic, military, and cultural life, as well as their initial interactions with China. Zhang Qian's historical contributions are prominently

recorded in Chinese sources, especially in the works Shiji (Historical Records) and Hanshu (History of the Han Dynasty). This article serves as an important source for studying ancient Chinese foreign policy and diplomacy.

Keywords: Zhang Qian, Western Regions, Dawan, Bactria, Central Asia, Han Dynasty, Shiji, Silk Road.

Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Chjan Chyan sayohati natijasida Xitoy dunyosiga birinchi marta yangi geografik “G’arbiy o’lka” tushunchasi kirib kelgan. Unga Markaziy Osiyoning g’arbiy qismi va Sharqiy Turkiston (Xitoyning zamonaviy viloyatlari - Qashqar va Shinjon) hududlari kiritila boshlandi. Chjan Chyan Xitoy uchun uzoq yillar davomida yopiq bo’lgan Markaziy Osiyoga birinchi marta borib, ushbu mintaqadagi yo’llar, mamlakatlar va xalqlar haqida ma’lumot to’plab kelgan birinchi rasmiy davlat elchisidir [A.Ходжаев: 2007. 146.].

Xitoyning Markaziy Osiyo bilan savdo, madaniy, diplomatik aloqalari tizimi ko’p asrlar davomida shakllangan. Bu yangi yo’llar va ularning rivojlantirish, xitoyliklarga ilgari noma’lum bo’lgan yangi geografik makonlarni kashf qilish bilan uzviy bog’liqdir. Xitoy va Markaziy Osiyoning g’arbiy qismi o’rtasida murakkab geografik to’siqlar mavjud bo’lgan: Takla-Makan cho’li, Kun-Lun, Tyan-Shan, Pomir tog’ tizmalari, minglab kilometrlik murakkab yo’l, ularni yengib o’tishdagi qiyinchiliklar Xitoy va Markaziy Osiyoning turli sivilizatsiyalari o’rtasidagi aloqalarni o’rnatishning dastlabki bosqichlarida katta jismoniy harakatlarni talab qilgan. [E.Ртвеладзе: 2005. 254.] Xan sulolasi davrida Xitoy asta-sekin Xuanxe daryosidan g’arbga qarab yangi hududlarni tizimli ravishda mustamlaka qilish va u yerlarga xitoyliklarni joylashtirish siyosatini olib bordi. Xitoy yozma manbalariga ko’ra, Xitoydan G’arbiy o’lkaga ikkita asosiy yo’llar olib borgan: janubiy va shimoliy.

Janubiy yo’l (Nandao) Yu-min-guan va Yangyuandan Shan-shandan o’tib, Lobnor ko’lini aylanib, Janubiy tog’larning (Kuny-Lun silsilasi) shimoliy tomoni bo’ylab borgan, so’ngra daryo yo’nalishi bo’yicha g’arbda Qashg’orda Yorkentgacha borgan. Keyin bu yo’l Vaxan koridoriga olib borgan, u yerda yo’l ikki yo’nalishga bo’linib ketadi - biri G’arbga Katta Yuechji (Baqtriya) va Ansi (Parfiya) mamlakatlariga, ikkinchisi Janubga - Hindistonga olib borgan.

Shimoliy yo’l (Beydao) G’arbiy Chexiya hukmdorining manzilidan Shimoliy tog’lar va daryo bo’ylab Qashg’argacha borgan, so’ngra O’lik tog’lar orqali g’arbga Davan (Farg’ona) va Kangyuyga, keyin shimoli-g’arbga Yanszay va Orolbo’yiga olib borgan. Chjan Chyaning sayohatidan va xitoyliklarning Sharqiy Turkistonga

harakatidan so'ng, G'arbiy hududga olib boruvchi asosiy yo'llar Xan hokimiyati tomonidan nazoratga olingan edi.

Xitoy yozma manbalariga ko'ra, Dunhuandan So'l ko'li (Lobnor) gacha tez-tez harbiy qarorgohlar tashkil etilib, bir necha yuzdan harbiy aholi yashagan, ularga harbiy aholi punktlarini qo'riqlash va xorijiy davlatlarga yuborilgan amaldorlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifasi yuklatilgan. Har bir yo'l maxsus amaldor tomonidan boshqarilar edi.

G'arb va Uzoq Sharqdan kelayotgan yo'llarni bir-biriga bog'lab, yagona qit'alararo yo'lga aylantirish, xunlarga qarshi kurashishda ittifoqdosh sifatida usun qabilalari bilan kelishish uchun bir qadam qo'yilishi kerak edi. Va bu qadam Chjan Chyan tomonidan amalga oshirildi, bu to'g'risida "Xan sulolasi tarixi" asarining Markaziy Osiyo davlatlarining Xitoy bilan diplomatik aloqalari" bobida batafsil tavsiflangan. Xan sulolasi davri miloddan avvalgi 206 - milodiy 222-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Xan sulolasi tashqi siyosatda bir qancha yutuqlarga erishadi. [Loewe, Michael: 2000. 687–689]

Bu davr bo'yicha rus sinologi N. Ya. Bichurin tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar alohida ajralib turadi. U Xan sulolasi tarixchilari asarlarining geografik jihatdan eng qiziqarli qismlarini, ya'ni chet el xalqlari haqida hikoya qiluvchi bo'limlarini tarjima qilgan. Bu vaqtda g'arbiy yevropalik tarjimonlar tomonidan to'liq yoritilmagan edi.

Ushbu tarjimalar Bichurinning "Qadim zamonlarda Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar haqida to'plangan ma'lumotlar" asariga kiritilgan bo'lib, ularga Sima Chyaning "Tarixiy xotiralar"idan olingan syunnular (hunlar) va Davan (Farg'ona) haqida hikoyalar, Chao Syani haqida hikoya, shuningdek, Ban Guning asaridan olingan syunnular haqidagi qiziqarli bo'lim tarjimalari kiradi. Quyida Bichurin tomonidan Sima Chyaning "Tarixiy xotiralar" asarining 123-bobidan olingan Xitoy elchisi Chjan Chyan tomonidan Davan (Farg'ona) haqida berilgan tavsifi keltiriladi: "Davan hunlardan g'arbda, poytaxtdan to'g'ri g'arbiy yo'nalishda qariyb 10 ming li uzoqlikda joylashgan. Davanliklar o'troq hayot kechiradi, dehqonchilik bilan shug'ullanadi, guruch va bug'doy yetishtiradi. Ular uzum vinosi bilan shug'ullanadi. Bu yerda ko'plab arg'umoq otlar mavjud. Ushbu otlar "samoviy otlar" zotidan bo'lib, terlaganda qoni aralash ter chiqaradi. Shahar va uylar ko'p. Davan yurtida 70 ga yaqin katta-kichik shahar mavjud, aholi soni bir necha yuz ming kishiga yetadi. Qurollari kamon, o'q va nayzalardan iborat." Davanliklar ot ustida kamondan o'q otishda mohir edilar. Davaning shimolida Kanguy (Xorazm, So'g'd, Sirdaryo), g'arbida esa Buyuk Yuyechji (Baqtriya, Markaziy Osiyoning ikki daryo oralig'i) joylashgan. Janubi-g'arbda Daxya (Afg'oniston va Buxoro hududining bir qismini egallagan qirollik), shimoli-sharqda

Usun (Tyanshan), sharqda esa Ganymi va Yuytyan joylashgan. Chjan Chyan xitoyliklarga Markaziy Osiyo - G'arbiy o'lkaga yo'l ochdi [Yü, Ying-shih: 1986. 377–462], g'arbda esa yana bir xitoylik sayohatchi Gan Ying ikki yuz yildan ko'proq vaqt o'tib, Sharqiy O'rta yer dengizi mamlakatlariga birinchi marta kirib keldi.

Xitoyning "Xouxanshu" (后汉书 hòuhànshū) yilnomasida – "Xan sulolasining keyingi tarixi" da aytilishicha, "97-yilning yozida Pan Chao tomonidan Gan Ying g'arbdagi G'arbiy dengiz tomonga yuborilgan (ya'ni O'rta yer dengizi) va qaytib kelgan. Ilgari xitoyliklarning hech biri u yerlarga kirib bormagan. Gan Ying o'zi o'tgan mamlakatlarning iqlimi va nodir asarlarini yuzaki tasvirlab bergan". U Rimga borishga harakat qildi, ammo mablag' yetishmasligi uni Xitoyga qaytishga majbur bo'ladi.

Gan Yingning sayohati xitoyliklarning Markaziy Osiyodan G'arbga yo'llarni bosqichma-bosqich rivojlantirishining tabiiy natijasi bo'lgan. Gan Ying Sharqiy O'rta yer dengiziga yetib borgan birinchi xitoylik bo'lsa-da, xitoyliklar unga yaqin joylashgan davlatlar haqidagi birinchi ma'lumotni Chjan Chyandan olgan, u esa bu ma'lumotlarni Baqtriyada bo'lganida to'plagan. Ularni mashhur xitoylik tarixchi Sima Chyan G'arbiy o'lka haqida tasvirlab bergan, u "Tyao Chji (Yuqori Mesopotamiya) va G'arbiy dengiz (O'rta yer dengizi) yaqinida joylashgan mamlakatga borish uchun yuzdan ortiq kunlik sayohat kerak bo'ladi", deb yozadi.

Chjan Chyan sayohatidan ko'p o'tmay, xuddi o'sha imperator U Di (miloddan avvalgi 140-87) davrida Davan va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan doimiy elchilar almashinuvi ochilib, yiliga kamida o'nlab Xitoy elchilari yuborilar edi.

Chjan Chyan tomonidan G'arbiy o'lka ochilganidan so'ng ikki yuz yil o'tgach, xitoyliklar bu yerga olib boradigan barcha yo'llarni qat'iy va tizimli ravishda o'zlashtirib oldilar, Markaziy Osiyoning turli viloyatlari bilan doimiy diplomatik va savdo aloqalarini o'rnatishdi. Davan ustidan siyosiy nazorat o'rnatishga urindilar. Masalan, Davan (Farg'ona) bilan bo'lgan urush natijasida O'rta yer dengiziga yo'l ochib, Rim va yunon sivilizatsiyalari bilan aloqa o'rnatildi. Ko'rib chiqilayotgan davrga eng yaqin manbalardan biri Ban Guning eslatib o'tilgan yilnomasi Syan Xanshu (先汉书 -xianhànshū) –Xan sulolasining avvalgi tarixi bo'lib, unda Markaziy Osiyo mamlakatlari haqidagi bo'limni yozishda nafaqat "Tarixiy yilnomalar" balki, Chjan Chyaning ikki bora sayohati natijasida o'zlashtirilgan materiallari ham ishlatilgan. Chjan Chyan miloddan avvalgi 139-yilda, ya'ni yueji qabilalari Yunoniston-Baqtriyani bosib olganidan bir yil o'tib, Xitoyni tark etadi. O'n yil xunlar asirligida bo'lib, u bandilikdan qaytib qutuladi. Markaziy Osiyoda

uzoq sarson-sargardonlikdan so'ng, miloddan avvalgi 129-yilda Baqtriyaga yetib keladi. Shu sababli, Ban Guning so'zlariga ko'ra, Chjan Chyan ko'z o'ngida sodir bo'lgan voqealarni tasvirlashda ishonchli muallifdir [Ю.А.Зыев: 1960. 9.]. G'arbiy hududdagi qabilalarning o'zaro munosabatlari, usun va yuechjilarning ko'chirilishi, Baqtriyaning zabt etilishi masalalari aks etadi. Shuni unutmazlik kerakki, Xan saroyining Xitoy shimoliy va g'arbiy qismidagi tashqi siyosati Chjan Chyaning qariyb yigirma yil davomidagi ma'lumotlariga asoslangan edi. "Xan sulolasi tarixi" ("Xan shu") ning "Chjan Chyan tazkirasi" da aytilishicha, mazkur elchi shaxsan o'zi Farg'ona, Dayueji, Baqtriya, Kangkiya kabi davlatlarga boradi. Ularning atrofidagi 5-6 davlat haqida boshqalar orqali surishtirib bilib, ularning hududi, boyligi va iqtisodiy ahvoli to'g'risida o'z hukmdori U- dig'a axborot bergan [А.Ходжаев: 2007. 149]. Chjan Chyaning ma'lumotiga asosan bitilgan manbalarda quyidagilar qayd etiladi: "U-di Farg'ona, Kan, Arshak kabi davlatlarning katta mamlakat ekanligi, ularda g'aroyib narsalarning ko'pligi, xalqi o'troqlashgan bo'lib, urf-odatlar xitoyliklar bilan o'xshashligi, lekin harbiy jihatdan o'jizligi, Xan sulolasining mollarini qadrlashi, ularning shimolida Dayuejilar bilan Kankiya davlatlari borligi va ularning harbiy qudrati nisbatan kuchliroq ekanligi, mol-dunyo va boylik berilsa ular foydani ko'zlab, ziyoratga kelishlari mumkinligini eshitadi." [А.Ходжаев: 2007. 149].

Chjan Chyan Markaziy Osiyoga tashrifidan so'ng, bu yerdagi xalqlarning madaniyati, iqtisodiyoti va qadriyatlarini, geografik joylashuvi haqida juda ko'p qimmatli ma'lumotlar bilan qaytadi. Ushbu ma'lumotlar "Shi ji" "Tarixiy xotiralar asariga kiritiladi. Uning sayohati natijasida nafaqat Markaziy Osiyo to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar to'planishiga balki, Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasida aloqalar rivojlana boshlanishiga sabab bo'ldi. Chjan Chyaning sayohati va u orqali yetkazilgan ma'lumotlar "Shi ji"ning 123-bobi — "Davan haqidagi hikoya" da bayon etilgan. Xitoyga qaytib kelgach, Chjan Chyan xunlarning g'arbdagi yerlari Yanszidan (hozirgi Lobnor ko'li) Lunsidan Shansu ulkan devorigacha, janubda esa Syan qabilalarigacha yetib borganini ma'lum qildi va shu orqali Xan davlatining g'arbga chiqish yo'lini to'sib qo'yganini qayd etdi. Xanning Lunsu okrugi hozirgi Sinin va Lanchjouning janubiy hududlarini qamrab olgan bo'lib, Chjan Chyan sayohatida xunlar yerlariga aynan shu hududdan yo'l olgan edi. Bu davrda, miloddan avvalgi II asrning 20-yillarida, Xan davlati mulklarining shimoli-g'arbiy chegaralari aynan shu yerdan o'tgan bo'lishi mumkin.

Chjan Chyan U-diga g'arbdagi katta davlatlar haqida, ularning boyligi va "ajoyib narsalarga egaligi" haqida hikoya qilganda, U-di bu davlatlarga hozirgi Sichuan yerlari orqali yo'l ochishga qaror qildi. Uning maqsadi Shendu (Hindiston) ga chiqish edi, Chjan Chyaning ma'lumotlariga ko'ra, Shendu Dasya bilan aloqada

bo'lgan. Ammo Sima Chyaning ta'kidlashicha, miloddan avvalgi 123-yilgacha qilingan sa'y-harakatlar muvaffaqiyatsiz tugagan.

Miloddan avvalgi 124 va 121 yillarda xan qo'shinlari shimoli-g'arbiy hududlarda xunlarga jiddiy talofatlar yetkazadi. Miloddan avvalgi 121-yildagi mag'lubiyatdan keyin Gansu koridorini egallab turgan ikki xun qo'mondonlari jazodan qo'rqib, taslim bo'lishni afzal ko'radi. Ularning qavmlari Xan davlati hududlariga ko'chiriladi, xunlarning oldingi yerlariga esa aholisi joylashtirildi. Sima Chyaning yozishicha, bu voqealardan so'ng xunlar Lobnor va "janubiy tog'lar" oralig'ida qolmagan.

Bu hodisalar natijasida Xan davlati g'arb yo'liga nazorat o'rnatadi. Xanning g'alabalari haqidagi xabarlar Kunlun yo'li bo'ylab barcha hududlarga tarqaladi. Miloddan avvalgi 119-yilda Chjan Chyan Usunga yo'l oladi va u yerdan Davan, Kanyuy, Katta Yuechji, Dasya, Ansi, Shendu, Yuyyan va Yuymiga elchilar yuboradi. Ular orqali hozirgi Gansu koridori yerlariga xanlarning ta'siri yanada oshadi. Oxir-oqibat Xan davlati g'arbdagi davlatlar bilan kuchli diplomatik va savdo-sotiq munosabatlari aloqalar o'rnatdi.

Chjan Chyan haqida ma'lumotlar solishtirilganda, uning ushbu davlatlarning o'zaro joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlari, Davan bilan Katta Yueji orasidagi 2000-3000 li masofa aniq oshirib yuborilganligini va grafik jihatdan ham, mantiqiy jihatdan ham boshqa ma'lumotlar bilan mos kelmasligini ko'rsatadi. Shunday qilib, Kanzyuy Davandan 2000 li shimoliy-g'arbda joylashgan. Dasha Davandan 2000 li janubi-g'arbda joylashgan. Katta Yueji Kanyuyning janubida, Dasha esa Katta Yuechji janubida joylashgan. Bu masofalar va o'zaro joylashuvni hisobga olgan holda, Davandan Katta Yuechji gacha 2000 li masofa bo'lishi mumkin emasligi ayon bo'ladi. O'zi Chjan Chyan Davandan to'g'ridan-to'g'ri Katta Yuechji yo'liga bormagan va uning yo'llari haqida ma'lumotga ega bo'lmagan. Shuningdek, Davan bilan Katta Yuechji o'rtasida rasmiy aloqalar, ehtimol, bo'lmagan. Shuning uchun ularning orasidagi masofa aniq emas.

Shuningdek, Kanzyuy, Usun va Dashaga bo'lgan 2000 li masofalar taxminiy, yaqinlashgan holda ko'rsatilgan. Chunki, Chjan Chyan ularni ilk bor Xitoy uzunlik o'lchov birligida — li bilan aniqlagan. Davandan Usunlar yashayotgan hududgacha bo'lgan 2000 li masofa, miloddan avvalgi I asr ma'lumotlariga nisbatan kamaytirilgan, lekin miloddan avvalgi II asrda Usunlar poytaxtining qayerda joylashganligi noma'lum. Bu masofa hozirgi Issiqko'l ko'ligacha bo'lgan masofaga mos keladi.

Davan poytaxtidan - Ershi shahri, Hozirgi Qo'qon shahri atrofida joylashgan, Kanzyuygacha shimoliy-g'arbda joylashgan (bu yerda qadimgi karvon yo'llari mavjud) 2000 li masofa aniq ravishda Talas daryosining vodiysiga olib boradi.

Davandan janubi-g'arbga, Dasha tomon 2000 li masofa esa, ehtimol, Qo'qon shahridan Leninobod (hozirgi Xo'jand) orqali Dushanbegacha olib boradigan qadimgi karvon yo'li bilan mos keladi, chunki bu yo'l eng yaqin va aniq Farg'ona janubi-g'arbga olib boradi. Qo'qon va janubi-g'arbga to'g'ridan-to'g'ri yo'l yo'q. Bu yerda tushuntirishlar berilgan. Quyida "Han shu" ning aniq ma'lumotlari ko'rsatilganidek, Xan davridagi yo'l masofasi hatto tekisliklarda ham XIX asr oxiridagi yo'l masofasidan taxminan 20% uzunroq bo'lgan, tog'li hududlarda esa bu farq yanada katta bo'lgan. Hozirgi yo'l masofasi bilan solishtirganda esa, bu farq 30% ga teng. Farg'onadan janubi-g'arbga yo'l hozirgi Xo'jand orqali baland tog'lar orqali o'tganligi sababli, Davan bilan Dashaning 2000 li (800 km) masofasini 30% ga qisqartirilsa, bu hozirgi yo'l masofasiga nisbatan taxminan 560 km ga teng bo'ladi. Hozirgi kunda Qo'qon shahridan, Davan poytaxtidan, Dushanbegacha bo'lgan masofa 488 km. ni tashkil qiladi. Chjan Chyan esa Davan bilan Dasha orasidagi masofani aniq va yaqinlashtirib ko'rsatgan. Demak, Chjan Chyaning ma'lumotlariga ko'ra, ular orasidagi 2000 li masofa Amudaryoning shimoliy qirg'og'iga olib borishi mumkin emas. Hozirgi kunda esa Dushanbe shahri orqali Qo'qon shahridan Amudaryogacha kamida 700 km, Qo'qon shahridan Termizgacha esa Samarqand orqali 800 km masofa bor.

Xitoy buyumlari Markaziy Osiyoga, ehtimol, miloddan avvalgi II-I asrlarning ikkinchi yarmida Chjan Chyan tomonidan G'arbiy mintaqa kashf etilgandan va Buyuk Ipak yo'lining faoliyati boshlanganidan so'ng, Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar bilan turli xil munosabatlar o'rnatilgandan keyin kela boshlagan.

Garchi bu yerga biroz oldinroq Xitoy buyumlari kirib kelishini tasdiqlovchi faktlar mavjud bo'lgan. Shunday qilib, Chjan Chyan Baqtriyada bo'lganida, u yerda bambuk hassalarni va Shu shahridagi rasmlarni ko'rgan. Baqtriya aholisining fikricha, bu buyumlarni Shenduga savdo qilish uchun ketgan savdogarlari sotib olgan. Boshqa bir xitoy manbasi "Shi ji" ma'lumotlariga ko'ra, bu tovarlar Shu viloyatidagi savdogarlardan sotib olingan.

Xitoy elchisi Chjan Chyaning Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyoga qilgan tarixiy sayohati nafaqat geosiyosiy va diplomatik jihatdan, balki madaniy va iqtisodiy nuqtayi nazardan ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Uning miloddan avvalgi II asrda amalga oshirgan sayohati orqali Xitoy ilk bor "G'arbiy o'lka" deb ataluvchi geografik hudud bilan tanishadi va bu mintaqa bilan muntazam aloqalar yo'lga qo'yiladi. Chjan Chyaning safarlari Markaziy Osiyodagi davlatlar haqida ishonchli va batafsil ma'lumotlar to'plash imkonini berdi. Ayniqsa, Farg'ona (Davan), Baqtriya, Kanguy kabi davlatlar haqida to'plangan axborotlar Xan imperiyasining tashqi siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu tarixiy tashrif natijasida Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo yo'llari, jumladan,

Buyuk Ipak yo'li shakllana boshladi. Shuningdek, Chjan Chyaning faoliyati xunlarga qarshi strategik siyosat yuritishda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning ma'lumotlariga tayanib, Xitoy imperatori U-di Markaziy Osiyo bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish hamda geosiyosiy ta'sir doirasini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada, Chjan Chyaning safari nafaqat Xitoy tarixida, balki umuman Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining o'zaro aloqalarini rivojlantirishda tub burilish yasadi. Uning sayohati va qoldirgan ma'lumotlari keyingi asrlarda Xitoyning G'arb bilan aloqalarida asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Т., 2007. Б 149.
2. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар: Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар. Фарғона, 2013.
3. Хўжаев А. Марказий Осиё халқлари тарихига оид маълумотлар (Қадимий ҳамда илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). – Т.:Навруз, 2015.
4. Ртвеладзе Е. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Т. 2005. С 254.
5. Зуев Ю.А. К этнической истории усуней. Новые материалы по Древней и Средневековой истории Казахстана. А., 1960. С 9.
6. Loewe, Michael. Zhang Qian 張騫. A Biographical Dictionary of the Qin, Former Han, and Xin Periods (220 BC – AD 24). Leiden: Brill. 2000. 687–689. ISBN 90-04-10364-3.